

**FARG'ONA VODIYSI HUDUDDIDA TARQALGAN TERAK BARGXO'RI
(*CHRYSMELA POPULI*) NING MORFOMETRIK KO'RSATKICHLARI VA
TARQALISH AREALI**

**МОРФОМЕТРИЧЕСКИЕ ПОКАЗАТЕЛИ И Ареал
РАСПРОСТРАНЕНИЯ ТОПОЛЯ ЛИСТОЕДА (*CHRYSMELA POPULI*),
РАСПРОСТРАНЕННОГО В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ**

**MORPHOMETRIC INDICATORS AND DISTRIBUTION AREA OF
POPLAR LEAF-EATING (*CHRYSMELA POPULI*) WHICH IS
DISTRIBUTED IN FERGANA VALLEY**

Ismoilova Oygul Ibroximjon qizi

Farg'ona davlat universiteti magistranti

Ahmadjonova Sadoqat

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi b.f.f.d(PhD)

Annotatsiya. *Tadqiqotning maqsadi Farg'ona vodiysi manzarali o'simliklari fitofag hasharotlarning xilma-xilligini o'rganish va tarqalish arealini hududlar kesimida tahlil qilishdan iborat. Maqolada Farg'ona vodiysida tarqalgan terak va tol o'simligining asosiy zararkunandalaridan biri hisoblangan chrysomela populining morfometrik ko'rsatkichlari va tarqalish areali va o'simliklarga zarari haqida yozilgan. Chrysomela populi asosan Farg'ona vodiysining tog' va tog'oldi mintaqalaridan xususan Farg'ona viloyati Toshloq va Beshariq tumanlari, Namangan viloyatining Pop va To'raqo'rg'on tumanlaridan yeg'ildi. Turaniqlangan hududlar kordinatalari olindi va xulosalar taqdim etildi. Olingan natijalar ushbu turning tarqalish areali va morfologiyasi haqidagi tasavvurlarni shakllanishiga imkon yaratdi.*

Абстрактный. Цель исследования – изучить разнообразие насекомых-фитофагов декоративных растений Ферганской долины и проанализировать ареал распространения в разрезе регионов. В статье описаны морфометрические показатели *chrysomela populi*, считающейся одним из основных вредителей тополя и ивы в Ферганской долине, а также ее

распространение и повреждение растений. Chrysomela populi собрана в основном из горных и предгорных районов Ферганской долины, в частности, из Ташлокского и Бешарыкского районов Ферганской области, Попского и Торакорганского районов Наманганской области. Получены координаты участков обнаружения вида и представлены выводы. Полученные результаты позволили сформировать представления об ареале и морфологии этого вида.

Abstract. The purpose of the study is to study the diversity of phytophagous insects of ornamental plants of the Fergana Valley and to analyze the area of distribution in a cross-section of regions. The article describes the morphometric indicators of chrysomela populi, which is considered one of the main pests of poplar and willow in the Fergana valley, and its distribution area and damage to plants. Chrysomela populi was collected mainly from the mountainous and sub-mountainous regions of the Fergana valley, in particular, from the Tashlok and Beshariq districts of the Fergana region, Pop and Toraqorgan districts of the Namangan region. The coordinates of the areas where the species were found were obtained and the conclusions were presented. The obtained results made it possible to form ideas about the distribution area and morphology of this species.

Kalit so'zlar: *Farg'ona vodiysi, Namangan va Farg'ona viloyatlari, chrysomela populi, morfologiya, areal, sistematika.*

Ключевые слова: *Ферганская долина, Наманганской и Ферганской областей, chrysomela populi, морфология, ареал, систематика.*

Key words: *Fergana valley, Namangan and Fergana regions, chrysomela populi, morphology, area, systematics.*


KIRISH

Farg'ona vodiysi hududi o'zining boy entomafaunasi bilan uzoq vaqtlardan beri tadqiqtchilar va olimlarning qiziqishini o'ziga jalb etib kelmoqda. Shu jumladan, so'ngi yillarda mamlakatimizda bioxilma- xilligini saqlashga qaratilgan chora tadbirlarni ko'riliishi hudud flora va faunasini chuqurroq tadqiq etish zaruratini vujudga keldirdi. Farg'ona vodiysi hududi entomafaunasini chuqurroq tadqiq etish mazkur yo'nalishdagi nazariy va amaliy ahamiyatga molik muammolarni tahlil qilish imkoniyatini beradi.

Hudud entomofaunasi keng o'rganilganligiga qaramasdan *Chrysomelidae* oilasi vakillarining kam o'rganilganligi va ularning sistematik o'rni, morfologik ko'rsatkichlari chuqur tahlil etilmaganligi e'tiborimizni tortdi. Oila vakillarining son jihatdan ko'pligi, vodiy hududida keng tarqalganligi va ularda turli xil morfoekologik hususiyatlar mavjudligi bizda tadqiqotni o'tkaizhsda yanada ko'proq qiziqish uyg'otdi. Shu sababli *Chrysomela populi* ning shahar va qishloqlar manzarali o'zimliklariga zararini va morfometrik ko'rsatkichlarini ushbu maqolada yoritdik.

Tadqiqotning material va metodikasi. Kuzatishlar 2024-yilning aprel-may oylarida vodiyning Pop, To'raqo'rg'on, Toshloq va Beshariq tumanlarida aholi yashash hududlari, Axsikent tarixiy yodgorligi, Sirdaryo havzasasi yaqinidagi to'qayzorlarda olib borildi. Ushbu hududlardan *Chrysomela populin*ing 150 dan ortiq namunalari ro'yxatga olindi. Namunalarni yig'ish umumiy qabul qilingan entomologic usullar orqali amalga oshirildi. Yig'ilgan namunalarni aniqlagichlar orqali tur tarkibi tahlil etildi (Osmolovcki). Ro'yxatga olingan individlarning taksonomik o'rni aniqlandi va namunalardan kolleksiyalar tayyorlandi. Toshloq tumani hududidan topilgan 50ta namunalardan morfometrik o'lchovlar olindi va hudud koordinatasi aniqlandi.(1-rasm)





1-rasm. Entomofaunistik tekshirishlar olib borilgan hudud.

Toshloq tumani 40,552, 71,813


***Chrysomela populinina* o'r ganilishiga doir adabiyotlar tahlili.** Yer yuzida bargxo'r qong'izlar ning biologiyasi ko'p o'r ganilgan bo'lsada, hozirda Markaziy Osiyoning ayrim mamlakatlarida Qozog'iston, O'zbekistonda turning bio-ekologik hususiyatlarini o'r ganish bo'yicha keng izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan: Fayzullayev B va Malikov D kabi izlanuvchilar tomonidan Zarafshon vohasi sharoitida terak bargxo'rining biologic va ekologik xususiyatlari, zarar keltirish holatlari to'g'risida o'zining ilmiy ishlarida yoritib bergen. *Chrysomela populinina* Zarafshon vohasida tarqalishi ko'payishi va morfologiyasi to'g'risida malumotlar keltirilgan (2023). Abdurahmonov&&& va **boshqalarning** „Mevali va manzarali daraxtlarning asosiy zararkunandalarini va ularga qarshi kurashning dolzarbliji” deb nomlangan **maqolasida** bir qancha bargxo'x qo'ng'zlar xususan terak bargxo'rining zarari va unga qarshi kurash choralari haqida ma'lumot keltirilgan (2023). Farg'ona vodisida olib borilgan izlanishlardan Ahmadjonova S. va Matyakubova M. ning, **Sharqiy** Farg'ona qattiqqanotlilar faunasi, biologiyasi va ekologiyasi” nomli maqolasida hududdagi ayrim fitofag qo'ng'izlar **xususan bargxo'r qo'ng'izlarning** faunasi va bioekologik xususiyatlariga to'xtalib o'tilgan. Bargxo'r qo'ng'izlarning biologiya va ekologiyasi ga doir ma'lumotlar bo'lsada ,vodiylar hududida bu qo'ng'izlarning bio-ekologik hususiyatlari kam o'r ganilganligi ayni turni o'r ganishga asos bo'ldi.

Olingan natija va tahlillar.**Namunalarining o'lchov ko'rsatkichlari.**

O'lch am ko'rsatki chlar mmda	1- namu na	2- namu na	3- namu na	4- namu na	5- namu na	6- namu na	7- namu na	8- namu na	9- namu na	1 0- namu na
TL	1 2.31	9. 96	1 0.36	1 0.3	1 1.4	8. 96	9. 36	9. 9	1 2.55	1 0.45
EL	8. 69	7. 42	8. 28	8. 34	8. 55	7. 23	8. 16	8. 3	8. 9	8. 45
ID	1. 09	0. 93	0. 97	1. 01	1. 07	0. 86	0. 9	0. 92	1. 11	1. 0
PL	1. 88	1. 56	1. 83	1. 8	1. 9	1. 34	1. 45	1. 54	1. 98	1. 84
PAW	3. 49	2. 81	2. 97	2. 71	3. 11	2. 3	2. 54	2. 77	3. 57	3. 01
PBW	3. 84	3. 36	3. 54	3. 84	3. 76	3. 22	3. 28	3. 4	3. 9	3. 46
EW	6. 81	5. 4	5. 72	6. 1	6. 64	4. 98	5. 1	5. 6	6. 98	5. 88
AL	2. 67	2. 74	2. 63	2. 96	2. 55	2. 43	2. 4	2. 6	2. 88	2. 76
PrFL	2. 08	1. 93	2. 06	2. 00	2. 06	1. 87	1. 94	1. 97	2. 13	1. 99
PrFW	0. 48	0. 35	0. 5	0. 55	0. 48	0. 36	0. 4	0. 58	0. 60	0. 58
PrT	1. 7	1. 56	1. 54	1. 53	1. 6	1. 46	1. 35	1. 49	1. 8	1. 6
MsFL	2. 02	1. 87	1. 92	2. 3	1. 99	1. 82	1. 87	2. 1	2. 5	1. 74
MsF	0.	0.	0.	0.	0.	0.	0.	0.	0.	0.

W	53	53	6	64	55	57	59	62	66	5
MsTL	1. 75	1. 66	1. 77	1. 77	1. 74	1. 68	1. 75	1. 62	1. 65	1. 6
MtFL	2. 34	1. 99	2. 28	2. 4	2. 37	2. 01	2. 18	2. 24	2. 01	2. 24
MtFW	0. 67	0. 63	0. 7	0. 69	0. 66	0. 67	0. 72	0. 7	0. 67	0. 71
MtTL	2. 06	1. 9	2. 1	2. 26	2. 04	2. 01	2. 14	2. 28	2. 35	2. 16

1-jadval. Bu yerda TL-umumiyliz uzunlik, EL- elitra (ust qanot) uzunligi, ID-ko'zlar orasidagi masofa, PL-ko'krak qismi uzunligi, PAW-yuqori ko'krak kengligi, PBW-pastki ko'krak kengligi, EW-elitra kengligi, AL-mo'ylov uzunligi, PrFL-1-Oyoq son uzunligi, PrFW-1-oyoq son kengligi, PrT-1-oyoq boldir uzunligi, MsFL-2-oyoq son uzunligi, MsFW-2-oyoq son kengligi, MsT-2-oyoq boldir uzunligi, MtFL-3-oyoq son uzunligi, MtFW-3-oyoq son kengligi, MsT-3-oyoq boldir uzunligi.



2-rasm. O'lchamlar olish

Xulosa . Muxtasar qilib aytganda biz bu maqolada ushbu turning morfologik ko'rsatkichlarini bayon etdik. Bu oila vakillarining son jihatdan ko'pligi bizni doimo izlanishda bo'lishga undaydi va biz oilaning qolgan vakillarini ham morfometrik ko'rsatkichlarini bayon etamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Fayzullayev B. Zarafshon vohasi sharoitida terak bargxo'rining biologic va ekologik xususiyatlari va zarari. Samarqand-2023.

2. Abdurahmonov

3.Ahmadjonova

4.Osmolovckiy